

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.2./GOHR8305>
UDC: 342.5(045)(575.1)

SAMARALI DAVLAT BOSHQARUVI ASOSI SIFATIDA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINING MA'NAVIY-AXLOQIY MASALALARI

Sayidumarov Oybek Tursunxo'ja o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat xizmatini rivojlantirish
agentligi mas'ul xodimi
ORCID: 0000-0003-0136-3367
e-mail: o.sayidumarov@argos.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada so'nggi yillarda davlat boshqaruvi, davlat fuqarolik xizmatchisi yo'nalishida amalga oshirilayotgan tub islohotlar o'rganilgan. Xususan, davlat xizmatchilarining ma'naviy qiyofasini shakllantirish, ularning axloqiy va huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha "Davlat mansabdor shaxslari o'zini tutishining xalqaro kodeksi" va "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi" xalqaro standarti kabi xalqaro hujjatlarning talablari muhokama qilingan. Shu bilan birga, xorijiy davlatlar (AQSh, Bolgariya, Argentina, Moldova, Rossiya, Qozog'iston) amaliyotini o'rganish orqali davlat fuqarolik xizmati, davlat boshqaruv lavozimlariga salohiyatli davlat fuqarolik xizmatchilarini tanlash va tayinlash masalalari, ularning mas'uliyati, odob-axloq qoidalariga rioya etish ahamiyati tahlil etilgan. "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun va "Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalari" bo'yicha davlat xizmatchilarining kasbiy madaniyati, xizmat faoliyati hamda xizmatdan tashqari, jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari vakillari bilan munosabatlari, shuningdek, xizmat faoliyatidagi tashqi ko'rinish va kiyinish uslubiga oid odob-axloq qoidalari ko'rib chiqilgan. Bunda muallif davlat fuqarolik xizmatchilarining yuksak kasbiy madaniyatini shakllantirish, jamoatchilik ongida davlat xizmatiga bo'lgan hurmat va ishonchni oshirish hamda davlat xizmatchilarining axloq qoidalariga zid bo'lgan xatti-harakatlardan o'zini tiyishga qaratilgan qator masalalar yuzasidan o'zining konseptual qarashlarini ilgari surgan.

Kalit so'zlar: davlat fuqarolik xizmati, odob-axloq qoidalari, davlat fuqarolik xizmatchisi, axloqiy qadriyatlar, korrupsiya, jamoatchilik nazorati.

НРАВСТВЕННО-ЭТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ГРАЖДАНСКИХ СЛУЖАЩИХ КАК ОСНОВА ЭФФЕКТИВНОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ

Сайидумаров Ойбек Турсунхужа угли,
ответственный работник Агентства
развития государственной службы
при Президенте Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье рассматриваются фундаментальные реформы, осуществляемые в последние годы в сфере государственного управления и государственной гражданской службы. В частности, были обсуждены требования международных документов, таких как «Международный кодекс поведения государственных служащих» и Международный стандарт «Система управления противодействием коррупции», по формированию нравственного облика государственных служащих, совершенствованию их нравственной

и правовой культуры. В то же время, изучив практику зарубежных стран (США, Болгарии, Аргентины, Молдовы, России, Казахстана), проанализированы вопросы отбора и назначения на государственную гражданскую службу потенциальных государственных служащих, перечень должностей государственного управления, их обязанности, важность соблюдения правил этикета. Согласно Закону Республики Узбекистан «О государственной гражданской службе» и Типовым правилам этикета государственных гражданских служащих, правила этикета действуют в служебной деятельности и вне службы в отношении профессиональной культуры государственных служащих, их служебной деятельности и отношений с общественностью, представителями средств массовой информации, а также внешнего вида и стиля одежды. При этом автор выдвинул свои концептуальные взгляды по ряду вопросов, направленных на формирование высокой профессиональной культуры государственных гражданских служащих, повышение уважения и доверия к государственной службе в общественном сознании, воздержание от действий, противоречащих нормам этики государственной службы, и др.

Ключевые слова: государственная гражданская служба, этика, государственный гражданский служащий, нравственные ценности, коррупция, общественный контроль.

MORAL AND ETHICAL ISSUES OF PUBLIC CIVIL SERVANTS AS THE BASIS FOR EFFECTIVE PUBLIC ADMINISTRATION

Sayidumarov Oybek Tursunkhuja ugli

Responsible officer, Agency
for the Development of Public Service
under the President of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article examines the fundamental reforms carried out in recent years in the field of public administration and public civil servants. In particular, the requirements of international documents discussed, such as the "International Code of Conduct for Civil Servants" and the international standard "Anti-Corruption Management System" on the formation of the moral character of civil servants, improving their moral and legal culture. At the same time, studying the practice of foreign countries (USA, Bulgaria, Argentina, Moldova, Russia, Kazakhstan), the issues of selection and appointment of potential civil servants to the civil service, public administration positions, their duties, the importance of observing the rules of etiquette are analyzed according to the Law "On the State Civil Service" and the "Model Rules of Etiquette for State Civil Servants", in relation to the professional culture of civil servants, official activities and relations with the public, representatives of the media outside the service, as well as the appearance and style of dress in official activities, rules of etiquette. At the same time, the author puts forward his conceptual views on a number of issues aimed at creating a highly professional culture of civil servants, increasing respect and trust in public service in the public mind, and refraining from actions that are contrary to the ethics of public service.

Keywords: state civil service, ethics, state civil servant, moral values, corruption, public control.

Kirish

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi-da davlat boshqaruvi sohasidagi o'zgarishlar davlat fuqarolik xizmatining ma'naviy-axloqiy asoslarini qayta ko'rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqardi. Bunda davlat fuqarolik xizmatchisining axloqiy salohiyati davlat miqyosidagi siyosiy tushunchaga aylanib bor-

moqda. Buni, o'z navbatida, davlat fuqarolik xizmatchilarining oddiy fuqarolar hayotiga ta'siri katta ekanligida ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmatining jozibadorligini oshirish, "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak", degan tamoyilni to'la ro'yobga chiqara oladigan salohiyatli va ta-

shabbuskor davlat fuqarolik xizmatchisini shakllantirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir.

Davlat xizmatining barqarorligi, ishonchliligi va shaffofligi ko'p jihatdan davlat xizmatchisining nafaqat kasbiy tayyorgarligi, balki uning axloqiy fazilatlariga ham bog'liq. Chunki mamlakat fuqarosi davlat xizmatchisi qiyofasida davlatni ko'radi. Davlat xizmatchisiga qaratilgan ishonch davlatga qaratilgan ishonchni belgilaydi. Shu sababli davlat xizmatidagi har qanday illatning oldini olishda, avvalo, tushuntirish va tarbiyaviy ishlar olib boriladi.

Material va metodlar

Maqolada umumlashtirish, deduksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Bugungi kunda aksariyat davlat organlari rahbarlari tomonidan mamlakat nufuzi va sha'niga salbiy ta'sir ko'rsatadigan xatti-harakatlarga (harassment, favoritizm va korporatizm) yo'l qo'yib kelinayotganligi kuzatilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda davlat boshqaruvi organlarida faoliyat yuritayotgan rahbarlarning o'z xodimlari va xalqqa qilayotgan qo'pol munosabati, tazyiqi ko'p e'tirozlarga sabab bo'lmoqda. Bu esa oddiy xalq tomonidan davlat organlariga nisbatan ishonchsizlik va nafratning keng yoyilishiga olib keladi. Hozirgi sharoitda davlat xizmatchilarining ma'naviy qiyofasini shakllantirish, ularning axloqiy va huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan amaliy choralar ko'rish lozim.

Axloq davlat xizmatchisi faoliyati uchun asosiy mezonga aylanganda, adolatli boshqaruv tashkil etiladi. Dunyo davlatlari tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, axloqiy qadriyatlar zaif bo'lgan davlat xizmatchisi adolatli boshqaruvni tashkil etish imkoniyatiga ega bo'lmaydi.

Birgina davlat rahbarining "xalq davlatga emas, davlat xalqqa xizmat qilishi kerak" degan chaqirig'i davlat xizmatchilaridan ha-

lol, adolatli va kamtar bo'lish, fuqarolar bilan muloqotda xushmuomala, vazmin va samimiy munosabatni namoyish qilishni talab etadi. Davlat xizmatchisi davlat bergan vakolat va huquq doirasida harakat qilar ekan, uning axloqiy va huquqiy madaniyati, xulq-atvor darajasi yaqqol yuzaga chiqa boshlaydi.

O'rta asr sharq mutafakkiri Abu Nasr al-Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida "Fozil davlatni faqatgina fozil insonlar orqaligina qurish mumkin", deya ta'kidlagan [2].

Shunga ko'ra, Forobiy o'z asarida fozil inson o'n ikkita fazilatga ega bo'lishi kerakligini keltiradi:

- 1) to'rt muchasi sog'lom bo'lish;
- 2) farosatli bo'lish;
- 3) xotirasi kuchli bo'lish;
- 4) zakovatli bo'lish;
- 5) notiq bo'lish;
- 6) bilimli bo'lish;
- 7) barcha narsadan ko'zi to'q bo'lish;
- 8) haqgo'y va odil bo'lish;
- 9) donishmandlik va oriyatli bo'lish;
- 10) nafsini yenga oladigan bo'lish;
- 11) adolatparvar bo'lish;
- 12) qat'iy hukmli bo'lish.

Tadqiqot natijalari tahlili

Xalqaro tashkilotlar, ilmiy hamjamiyat vakillari tomonidan davlat fuqarolik xizmatchisining axloqiy kamoloti davlat boshqaruvida asosiy unsurlardan biri sifatida baholanadi. Xususan, BMT Bosh Assambleyasi 1996-yil 12-dekabrda 51/59 rezolyutsiyasi bilan tasdiqlangan Davlat mansabdor shaxslari o'zini tutishining xalqaro kodeksida ushbu shaxslar tomonidan rioya qilinishi lozim bo'lgan asosiy prinsiplar, o'zlari-ning, shuningdek, turmush o'rtog'i va (yoki) qaramog'idagi shaxslarning daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarni deklaratsiya qilish, sovg'a va/yoki boshqa e'tibor belgilarini qabul qilish, maxfiy ma'lumotlar bilan ishlash bo'yicha talablar belgilangan.

BMT Kuzatuv guruhining 2020-yil 8-10-iyun kunlari Vena shahrida o'tkazilgan

11-sessiya yig'ilishida Korrupsiyaga qarshi konvensiyaning II bobi (Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha choralar) dunyoning 34 ta davlatida (Osiyo, Tinch okean, Lotin Amerikasi, Karib dengizi, Sharqiy Yevropa hududlaridagi davlatlar) amalga oshirilishi holati bo'yicha natijalar e'lon qilindi. O'rganish natijasiga ko'ra, 31 ta davlatga davlat xizmatchilarining odob-axloq qoidalari sohasini yanada takomillashtirish bo'yicha jami 95 ta tavsiya berilgan.

Mazkur davlatlarda (xususan, O'zbekistonda ham) keng tarqalgan muammolardan biri – (1) davlat xizmatchilarida odob-axloq qoidalarining mavjud emasligi yoki mavjud bo'lsa ham uning davlat xizmatchilarining ayrim guruhlariga nisbatan cheklangan darajada qo'llanishi; (2) davlat xizmatchilarining korrupsiya to'g'risida xabar berish bo'yicha aloqa kanallari soni cheklanganligi; (3) manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha choralar yetarli emasligi, shu jumladan, (4) ishdan tashqari vaqtdagi faoliyat; (5) o'ringdashlik asosida ishlash; (6) daromadlarni deklaratsiyalash va sovg'alarni qabul qilish bilan bog'liq masalalarga oid choralar yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi keltirilgan.

"Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi" xalqaro standartida (ISO 37001:2016) odob-axloq qoidalarida belgilanishi lozim bo'lgan talablar davlat xizmatchilariga korrupsiya to'g'risida xabar berish bo'yicha aloqa kanallarini tashkil etish, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha choralar belgilash, shu jumladan, ishdan tashqari vaqtdagi faoliyat, daromadlari to'g'risida deklaratsiya berish va sovg'alarni qabul qilish bo'yicha talablarni o'z ichiga oladi.

Xorijiy davlatlar (AQSh, Bolgariya, Argentina, Moldova, Rossiya, Qozog'iston)da yagona tizimlashtirilgan mexanizmga ega bo'lgan odob-axloq qoidalari qabul qilingan bo'lib, ular qonunlar, farmonlar va boshqa turdagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan tasdiqlangan. Shuningdek, ularda davlat xizmatchilarining majburiyatlari va ularga amal qilish

ustidan nazorat olib boruvchi tashkilotlar va mas'ullar belgilangan.

Xususan, AQShda "Davlat xizmatchilarining odob-axloq to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan bo'lib, unda davlat xizmatchilari tomonidan daromadlari to'g'risida deklaratsiya berish tartibi, deklaratsiyadagi nomuvofikliklar yuzasidan prokuror tomonidan sudga da'vo arizasi kiritish asosida qonunni buzgan shaxsga nisbatan jarima nazarda tutiladi.

Argentinada "Davlat boshqaruvini amalga oshirishda odob-axloq to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan bo'lib, davlat xizmatchilarining o'z vazifalarini amalga oshirishda sovg'alar, hadya yoki xayriya, xizmatlar yoki tovarlarni qabul qilib olishlari taqiqlangan. Mehmondo'stlik belgilari yoki diplomatik odatlari asosida qabul qilingan sovg'alar huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ro'yxatga olinadi.

Islandiyada davlat muassasalari xodimlarining odob-axloq kodeksi Islandiya Bosh vaziri qarori bilan tasdiqlangan bo'lib, ushbu kodeksda davlat xizmatchilari tomonidan ish joyidagi xizmat vazifasi, davlat manfaatlariga zid xatti-harakatlarni sodir qilmaslik, manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha bevosita rahbariga xabar berish, ommaviy axborot vositalari bilan munosabat tartibi, davlat xizmatchilarining javobgarligi mustahkamlangan.

Rossiya Federatsiyasida davlat xizmatchilari va munitsipal xizmatchilarining xizmat odob-axloqi Namunaviy kodeksi Rossiya Federatsiyasi Prezidenti farmoni bilan tasdiqlangan. Namunaviy kodeksda umumiy qoidalar, davlat (munitsipal) xizmatchilarining kasbiy xulq-atvor qoidalari va asosiy prinsiplari, davlat (munitsipal) xizmatchilarining tavsiyaviy odob-axloq qoidalari va namunaviy kodeks qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik masalalari bo'yicha talablar belgilangan.

Qozog'istonda ushbu soha Prezident farmoni bilan tasdiqlangan Davlat xizmatchilarining odob-axloq kodeksi bilan tartibga solinib, unda bir qancha maxsus qoidalar belgilangan. Masalan, ushbu kodeksda davlat

xizmatchilari xulq-atvorining umumiy standartlari, xizmatdan tashqari vaqtdagi xulq-atvor standartlari, xizmat munosabatlaridagi xulq-atvor standartlari, hatto ommaviy chiqishlar, jumladan, ommaviy axborot vositalari bilan bog'liq odob-axloq standartlari ham aniq belgilab qo'yilgan. Davlat xizmatchilarining mazkur etika qoidalariga rioya etishlari ustidan nazorat qilish mexanizmi ham mavjud bo'lib, buni etika bo'yicha mas'ul xodim faoliyati yo'lga qo'yilganligi bilan izohlash mumkin. Uning vakolatlari esa Prezident qarori bilan tasdiqlangan "Etika bo'yicha mas'ul xodim faoliyati to'g'risida"gi nizom qoidalarini bilan belgilab qo'yilgan.

Mamlakatimizda ham "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunning (2022-yil 8-avgust, O'RQ-788-son) qabul qilinishi bu yo'nalishda yurtimizda kechayotgan ma'muriy islohotlarning muhim bosqichi bo'ldi. Qonun bilan ilk bor davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy maqomini belgilash, eng munosiblarni ochiq va mustaqil tanlov bilan ishga qabul qilish, xodimlar faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichi (KPI) asosida baholash, meritokratiya asosida xizmat pog'onalarida ko'tarilish hamda odob-axloq qoidalarini belgilandi.

Qonunga muvofiq, davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalarini davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan rioya etilishi shart bo'lgan odob-axloq normalari majmuidan iborat ekanligi mustahkamlangan [3].

Qonunning 17-moddasida rahbarlar, bo'ysunuvdagilar va boshqa davlat fuqarolik xizmatchilari o'rtasidagi o'zaro axloqiy munosabatlar, davlat fuqarolik xizmatchilarining ishchanlik obro'si va davlat fuqarolik xizmatining nufuziga putur yetkazishi mumkin bo'lgan harakatlar (harakatsizlik) hamda davlat fuqarolik xizmatchilarining xizmat faoliyatidagi va xizmatdan tashqaridagi xulq-atvori davlat fuqarolik xizmatchilarining asosiy odob-axloq qoidalarini sifatida belgilangan.

Shu bilan birga, davlat fuqarolik xizmatchilari xulq-atvorini tartibga solish,

ularning kasbiy madaniyati, xizmat faoliyati davomida hamda xizmatdan tashqari vaqtda odob-axloqi, tashqi ko'rinishi va kiyinish uslubini belgilash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi 595-sonli "Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalarini (keyingi o'rinlarda – qoidalar) tasdiqlandi.

Mazkur qoidalar 11 bob, 33 banddan iborat bo'lib, davlat xizmatchilarining kasbiy madaniyatiga oid umumiy odob-axloq qoidalarini (2-bob), xizmat faoliyatiga oid (3-bob), xizmatdan tashqari (4-bob), jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari va killari bilan munosabatlarga oid (5-bob), xizmat faoliyatidagi tashqi ko'rinish va kiyinish uslubiga oid odob-axloq qoidalarini (6-bob), shuningdek, manfaatlar to'qnashuvi (7-bob), davlat xizmatchilarining manfaatini himoya qilish (8-bob), odob-axloq qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish (9-bob) va odob-axloq qoidalariga rioya etmaganlik uchun javobgarlik (10-bob) kabi masalalar tartibga solinadi.

Odob-axloq qoidalarini bo'yicha dolzarb masalalar muhokamasi

Davlat fuqarolik xizmatchilarining kasbiy faoliyatini amalga oshirishdagi prinsiplari quyidagilardan iborat: qonuniylik; vatanga sadoqat va xizmat vazifasiga fidoyilik, yuklangan funksional vazifalarini to'liq bajarish, ijro intizomiga qat'iy rioya etish; fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi; davlat va jamiyat manfaatlariga sodiqlik; adolatlilik, halollik va xolislik; korrupsiyaviy holatlarga murosasiz munosabatda bo'lish va qarshi kurashish; xizmat sirini qat'iy saqlash; mansab vakolatlarini suiiste'mol qilmaslik; manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik kabilar.

Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat

davlat organlarining kadrlar bo'linmalari yoki odob-axloq komissiyalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.

Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalarini buzish ularni qonunga muvofiq intizomiy va boshqa javobgarlikka tortish uchun asos bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi ularning faoliyati hamda xizmatdagi axloqini baholashning asosiy mezonlaridan biri sifatida baholanadi. Bunda davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya qilinishi holati ularni kelgusida yuqori lavozimlarga tayinlash va rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirishda hisobga olinadi.

Davlat fuqarolik xizmati faoliyatida jamoatchilik nazorati quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

birinchisi, qoidalarining 5-bandiga ko'ra, davlat xizmatchilari odob-axloq qoidalariga rioya qilish majburiyatiga, fuqarolar esa davlat xizmatchilaridan mazkur qoidalariga mos bo'lgan kasbiy madaniyatni talab qilish huquqiga ega.

"Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari jamoatchilik nazorati subyekti sifatida belgilangan. Shunga ko'ra, fuqarolar davlat xizmatchilaridan odob-axloq qoidalariga mos bo'lgan kasbiy madaniyatni talab qilishi mumkin [4];

ikkinchisi, qoidalarining 17-bandida jamoatchilik tomonidan davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga oid ayblov yoki tanqid bildirilgan taqdirda davlat organlari va tashkilotlari unga nisbatan bildirilgan ayblov yoki tanqidga ommaviy izoh yoxud raddiya berishi lozimligi mustahkamlangan.

Xulosalar

Odob-axloq qoidalarini davlat xizmatida yuksak kasbiy madaniyatni shakllantirish, jamoatchilik ongida davlat xizmatiga bo'lgan hurmat va ishonchni oshirish hamda dav-

lat xizmatchilarining axloq qoidalariga zid bo'lgan xatti-harakatlarining oldini olishga qaratilgan.

Odob-axloq qoidalarining tartibga solish yo'nalishlari:

a) davlat fuqarolik xizmatchilari mehnat faoliyati davomida va ishdan tashqari vaqtdagi faoliyat – davlat xizmatining obro'siga putur yetkazishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlardan tiyilish, axloq normalariga doimiy rioya qilish, mas'uliyat, kasbiga sadoqat va halollik, oilasida sog'lom muhitni ta'minlash hamda jamiyatda axloqning umume'tirof etilgan qoidalariga rioya etish;

b) davlat fuqarolik xizmatchilari kasbiy madaniyatiga oid soha faoliyati – halol, adolatli va kamtar bo'lishi, fuqarolar bilan muloqotda xushmuomala, vazmin va samimiy munosabatni namoyish qilishi va b.;

d) davlat fuqarolik xizmatchilari xizmat faoliyati – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlariga so'zsiz rioya etish, mamlakat sha'nini e'zozlash, davlat siyosatiga sodiq bo'lish hamda har qanday qonunbuzilish, ayniqsa, korrupsiya holatlariga qarshi murosasizlik bilan kurashish, jamoada sog'lom ma'naviy muhitni saqlash choralari ko'rish va boshqa qonunchilikda belgilangan talablarni bajarish;

e) davlat fuqarolik xizmatchilari xizmatdan tashqari faoliyatida – umumqabul qilingan axloq normalariga rioya qilishlari va ularga zid bo'lgan xulq-atvor va xatti-harakatlardan o'zlarini tiyishlari shart (milliy urf-odat, qadriyat va an'analarga hurmat bilan munosabatda bo'lish; dabdababozlik, shuhratparastlik, guruhbozlik, maishatbozlik, ichkilikbozlik va boshqa salbiy illatlarga yo'l qo'ymasligi lozim);

f) davlat fuqarolik xizmatchilarining xizmat faoliyatidagi tashqi ko'rinishi va kiyinish uslubi, birinchidan, fuqarolarning davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga hurmati oshishi, ikkinchidan, davlat xizmati nufuzi yuksalishiga xizmat qilishi belgilangan.

Bunda davlat xizmatchisi tashqi ko'rinishini belgilangan me'yorlar doirasida saqlashi, kamtarona kiyinishi, atrofda qiladigan e'tiborini o'ziga ortiqcha jalb qiladigan tarzda kiyinmasligi kerak [5].

Mavzu doirasida xulosa qiladigan bo'lsak, davlat fuqarolik xizmatchilarining ma'naviy qiyofasi, uning axloqiy va huquqiy madaniyat darajasi ko'p jihatdan shaxsning ma'naviy kamolotiga bog'liq. Mamlakatda davlat xizmatchilariga nis-

batan jamoatchilikning talabchanligi, OAV va jurnalistlarning ijobiy faoliyati hamda tizimli ravishda davlat organlarining tiyib turish va nazorat qilish faoliyati yo'lga qo'yilganligi davlat xizmatchisida yuksak kasbiy madaniyatni shakllantirish, jamoatchilik ongida davlat xizmatiga bo'lgan hurmat va ishonch oshishi hamda davlat xizmatchilari axloq qoidalariga zid xatti-harakatlarining oldini olishga xizmat qiladi, deb baholash mumkin.

REFERENCES

1. Azizov X. O'zbekiston Respublikasida davlat fuqarolik xizmatini takomillashtirish masalalari [Issues of improving the state civil service in the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Shafolat Nur Fayz Publ., 2020, p. 170.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri [City of virtuous people]. Trans. A. Irisov, M. Makhmudov, U. Otazhon. Resp. eds. M. Khairullaev, M. Jakbarov. Tashkent, Yangi asr avlodi Publ., 2016, 320 p.
3. Averina O.P. Etika i kultura upravleniya [Ethics and Culture of Management]. Khabarovsk, DAGS, 2004, 132 p.
4. Botavina R.N. Etika menedzhmenta [Ethics in management]. Moscow, Financial and statistics Publ., 2004, 136 p.
5. Vasilev D. Kodeks povedeniya gosudarstvennykh sluzhashchikh: yevropeyskiy opyt i rossiyskaya deystvitelnost [Code of Conduct for Civil Servants: European Experience and Russian Reality]. 2002. Available at: <http://www.carnegie.ru/ru/pubs/briefings/issue07-02.pdf>
6. Abramova L.P., Varbenkova T.M. Etika i kultura upravleniya [Ethics and management culture]. St. Petersburg, 2010, 265 p.
7. Shuvalova N.N. Sluzhebnoye povedeniye gosudarstvennogo grazhdanskogo sluzhashhego: moralnyye osnovy [Service behavior of a public civil servant: Moral foundations]. Rostov-on-Don, Feniks Publ., 2012, 360 p.
8. Thompson D. Paradoxes of Government Ethics. *Public Administration Review*, Washington, 1992, vol. 52, pp. 52–60.
9. ASPA's code of ethics. Applying professional standards and ethics in the eighties: a workbook and study guide for public administrators. Eds. H. Mertins, P. Hennigan. Washington, DC, 1995, 246 p.
10. Building Public Trust: Ethics Measures in OECD Countries. PUMA Policy Brief, 2000, no. 7, p. 6.
11. Code of ethics for government service. Combating corruption. Encouraging ethics. A sourcebook for public service ethics. Eds. W. Richter, F. Burke, J. Doing. Washington, DC, American society for public administration, 1990, 158 p.
12. Code de déontologie de la police national, 1986. Available at: <http://www.oecd.org/document/12/0,3343,en26493413535532108llll00.html>.
13. Dyens S. Elements de reflexion sur le droit de la déontologie administrative. *Revue Administrative*, 1999, no. 308, 168 p.

14. Gilman S. Ethics Codes and Codes of Conduct as Tools for Promoting an Ethical Professional Public Service: Comparative Successes and Lessons. Washington, DC, 2005, p. 76.
15. Lewis C., Gilman S.C. The ethics challenge in public service. A problem-solving guide. San Francisco, Jossey-Bass Publ., 1991, 234 p.
16. Principles for managing ethics in the public service. OECD recommendation, 1998. Available at: <http://www.oecd.org/dataoecd/60/13/1899138.pdf>
17. The Civil Service Code (United Kingdom). 2006, June. Available at: <http://www.civilservice.gov.uk/iam/codes/cscodex/index.asp>
18. Trust in Government. Ethics measures in OECD countries. OECD, 2000, 314 p.
19. Values and Ethics Code for the Public Service. Canada. 2003, September 1. Available at: <http://www.oecd.org/dataoecd/60/61/35528015.pdf>
20. Palidauskaite J. Codes of Conduct for Public Servants in Eastern and Central European Countries: Comparative Perspective. *Palidauskaite*. Available at: <http://www.oecd.org/dataoecd/17/32/35521438.pdf>
21. Whitton H. Implementing Effective Ethics Standards in Government and the Civil Service. *Transparency International*, 2001. Available at: <http://www.oecd.org/dataoecd/62/57/35521740.pdf>

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL 2-SON

VOLUME 3 / ISSUE 2 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.1.

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y. f. d., dotsent

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Mahmudov, Y. Yarmolik,
F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 29.04.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 21,4 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma raqami: 19.

TDYU tipografiyasida chop etildi.